

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHUHRATOV MA'MURJON SHUHRAT O'G'LI

TASHKILOT XODIMLARINING SAMARADORLIK
KO'RSATKICHLARINI HISOBLASHNI RAQAMLASHTIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Economic Sciences**

Shuhratov Ma‘murjon Shuhrat o‘g‘li

Tashkilot xodimlarining samaradorlik

ko‘rsatkichlarini hisoblashni raqamlashtirish.....3

Шухратов Маъмуржон Шухрат угли

Цифровизация расчета показателей

эффективности сотрудников организации.....27

Shuhratov Mamurjon Shuhrat ugli

Digitalization of the calculating employee

performance indicators.....54

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHUHRATOV MA'MURJON SHUHRAT O'G'LI

**TASHKILOT XODIMLARINING SAMARADORLIK
KO'RSATKICHLARINI HISOBLASHNI RAQAMLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5632 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mo'minov Bahodir Boltayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich
akademik, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Otajanov Umid Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-26, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "_____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.d., professor

T.S. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiyaning jadallashuvi va raqamli iqtisodiyotning kengayishi sharoitida tashkilotlar faoliyatini samarali boshqarish, inson kapitalidan oqilona foydalanish hamda xodimlar ish natijadorligini ob'ektiv baholash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida boshqaruv tizimlari tubdan o'zgarib, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish modeli shakllanmoqda. Shu bois global rivojlanish sharoitida tashkilotlar samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar asosida xodimlar faoliyat ko'rsatkichlariga ishlov berish va ularni chuqur tahlil qilish jarayonlari faol rivojlanmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "raqamli iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 15 foizdan ortiqni tashkil etib, so'nggi o'n yillikda an'anaviy tarmoqlarga nisbatan 2,5 barobar tez sur'atlarda o'sdi. Prognozlarga ko'ra, 2025–2030 yillarga borib raqamli iqtisodiyotning global YaIMdagi ulushi 24–30 foizgacha yetishi kutilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi o'rtacha 5–12 foizni tashkil etadi (Buyuk Britaniya – 12,4 %, Janubiy Koreya – 8 %, Xitoy – 10 %)"¹. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Jahon amaliyotida tashkilotlar faoliyatini baholashda sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar, bulutli texnologiyalar, HR-analitika, Business Intelligence (BI) tizimlari keng qo'llanilmoqda. Xodimlar samaradorligini real vaqt rejimida monitoring qilish, KPI ko'rsatkichlarini avtomatik hisoblash va prognozlash, inson resurslari bilan bog'liq risklarni oldindan aniqlash ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari joriy etilgan tashkilotlarda mehnat unumdorligi 15-20 % oshadi, xodimlar almashinuvi esa 25-30 % kamayadi.

Respublikamizda ham davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini raqamlashtirish, inson kapitali samaradorligini oshirish hamda natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda iqtisodiyotda band aholining soni 14 million nafardan ortiqni tashkil etadi, bu esa xodimlar faoliyatini samarali baholash tizimini takomillashtirishning makroiqtisodiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. So'nggi yillarda davlat xizmatlarining 70 foizdan ortig'i elektron shaklga o'tkazildi, ko'plab tashkilotlarda axborot tizimlari joriy qilindi. Shu bilan birga, amaliyotda ko'plab tashkilotlarda xodimlar faoliyatini baholash jarayonlari hali ham an'anaviy yoki yarim avtomatlashtirilgan KPI tizimlari asosida amalga oshirilmoqda. Ko'rsatkichlarni qo'lda kiritish, ma'lumotlarning tarqoqligi, sub'ektiv baholash, real vaqt monitoringining yo'qligi boshqaruv qarorlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. KPI tizimlari mavjud bo'lsa-da,

¹ World Bank. Digital Economy and Development Report. Washington, World Bank Group, 2024.

ularni sun'iy intellekt asosida tahlil qilish, prognozlash va kompleks baholash mexanizmlari yetarli darajada joriy etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarda davlat boshqaruvida natijadorlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, raqamli platformalar orqali samaradorlikni monitoring qilish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi xodimlar faoliyat ko'rsatkichlariga raqamli texnologiyalar asosida ishlov berish, ularni avtomatlashtirilgan tahlil qilish, baholash jarayonining ob'ektivligini ta'minlash va prognozlash mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligini belgilaydi. Shu munosabat bilan, raqamli texnologiyalar asosida xodimlar faoliyat ko'rsatkichlariga ishlov berishni takomillashtirish, KPI tizimlarini sun'iy intellekt elementlari bilan integratsiyalash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan model va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish mazkur dissertatsiyaning asosiy ilmiy muammosi hisoblanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Raqamli boshqaruv va xodimlar faoliyatini baholashda KPI tizimlarining joriy etilishi, ayniqsa sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar, xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, R. Kaplan, D. Norton, B. Marr, A. Neely, G. Maake, A. Shaout, J. Gohar, M.S. Deris, T. Wang, D. Parmenter, S. Russell, P. Norvig, R. Caruso² va boshqalar KPI

² Kaplan, R.S., Norton, D.P. *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business School Press, Boston, 1996. Kaplan, R.S., Norton, D.P. *Strategy Maps: Converting Intangible Assets into Tangible Outcomes*. Harvard Business School Press, Boston, 2004. Marr, B. *Key Performance Indicators: The 75 Measures Every Manager Needs to Know*. Pearson Education, London, 2012. Neely, A., Adams, C., Kennerley, M. *The Performance Prism: The Scorecard for Measuring and Managing Business Success*. Financial Times Prentice Hall, London, 2002. Maake, G. *Performance Measurement Systems and Digital Management Approaches in Modern Organizations*. Springer, Berlin, 2018. Shaout, A., Yousif, M.K. *Performance Evaluation Using Artificial Intelligence Techniques*. *International Journal of Computer Science and Information Technology*, 2014. Gohar, J., Deris, M.S. *Data Mining Techniques for Organizational Performance Evaluation*. *IEEE International Conference on Data Mining*, 2015. Deris, M.S., Omatu, S., Othman, Z.A., Yoshioka, M. *Intelligent Data Mining and Knowledge Discovery Techniques*. Springer, Berlin, 2005. Wang, T., Li, X. *Machine Learning Approaches for Business Performance Prediction*. Springer, New York, 2019. Parmenter, D. *Key Performance Indicators: Developing, Implementing, and Using Winning KPIs*. John Wiley & Sons, New Jersey, 2015. Russell, S., Norvig, P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson Education, New Jersey, 2010. Norvig, P., Russell, S. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson Education, New Jersey,

tizimlarini ishlab chiqish, ular yordamida xodimlarning samaradorligini baholash va qaror qabul qilish tizimlariga integratsiya qilish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borishgan. Mazkur yo'nalishda MDH davlatlari olimlari V.V. Shubov, L.E. Ismoilova, A.K. Golubin, A.V. Lotkov, V.V. Dik, G.R. Boltabaeva, I.V. Ivanov, G.A. Titorenko va A.P. Verevchenko³ singari tadqiqotchilar KPI ko'rsatkichlarining iqtisodiy samaradorligi, raqamlashtirilgan boshqaruv jarayonlarida qo'llanilishi, hamda iqtisodiy axborot tizimlariga moslashtirish masalalarini o'rganib chiqqanlar.

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlar bilan S.G'ulyamov, A.Qodirov, B.Xudoyberdiyev, N.Mirzabekova, D.Abdullayev, Z.U.Berdinazarov, T.Qo'chqorov⁴ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. B.Mo'minov tomonidan esa KPI tizimlarini ta'lim muassasalari va boshqaruv organlariga joriy etish, xodimlar faoliyatini baholash mezonlarini aniqlash, algoritmlashtirish va sun'iy intellekt yordamida samaradorlikni oshirish bo'yicha nazariy va amaliy yechimlar ishlab chiqqanlar.

Amaliyotda esa ko'plab tashkilotlarda xodimlarni baholash uchun hozircha yagona metodologik asoslar, integrasiyalashgan platforma va avtomatlashtirilgan tahlil vositalari yetarli emasligi sezilmoqda. Kadrlar samaradorligini baholashda ayrim bo'lim va bo'g'inlarda turlicha mezonlar qo'llanilishi, ma'lumotlarning sub'ektiv yondashuv asosida yig'ilishi kabi holatlar uchraydi. Bu esa tashkilotlarda mehnat unumdorligini oshirish va adolatli rag'batlantirish tizimini joriy etishga to'sqinlik qiladi. Shu bois ushbu tadqiqot mavzusi yurtimiz sharoitida juda dolzarb bo'lib, xodimlar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida baholashning ilmiy-nazariy va amaliy yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari tashkilotlarda samarador boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish, qaror qabul qilishda ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish va mehnat resurslarini ratsional boshqarishga xizmat qiladi va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

2010. Caruso, R. Human Resource Performance Measurement and Evaluation in Organizations. Routledge, London, 2017

³ Шубов, В.В. Информационные технологии управления предприятием. Москва: Финансы и статистика, 2010. Исmoilova, Л.Е. Информационные системы и технологии в экономике и управлении. Ташкент: ТГЭУ, 2018. Голубин, А.К. Информационные технологии в управлении организацией. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. Лотков, А.В. Современные методы анализа данных в управлении социально-экономическими системами. Москва: Наука, 2016. Дик, В.В. Информационные системы и технологии в экономике. Москва: КНОРУС, 2015. Болтабаева, Г.Р. Рақамли иқтисодиёт шaroitida бoшқарув тизимларини такомиллаштириш. Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. Иванов, И.В. Интеллектуальные системы поддержки принятия решений. Москва: Бином, 2014. Титоренко, Г.А. Информационные технологии управления. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2013. Верещенко, А.П. Информационные технологии управления персоналом. Москва: Инфра-М, 2017.

⁴ Гулямов С. С. Цифровая трансформация креативной экономики Нового Узбекистана: монография. – Ташкент, 2026. Qodirov, A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. Xudoyberdiyev, B.B. Ilmiy xodimlar faoliyatini baholashda KPI mezonlari. Oliy ta'lim muammolari, 2022, №2, b. 28-35 Mirzabekova, N.N. Raqamli transformatsiya jarayonlarida iqtisodiy rivojlanish omillari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021. Abdullayev, D.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida boshqaruv tizimlarini rivojlantirish. Toshkent: Fan, 2017. Бердиназаров З. У. Маҳаллий ижро ҳокимияти фаолиятида КРІ тизимидан фойдаланишнинг хориж тажрибаси // Илм-фан ва инновацион ривожланиш. – 2020. – № 6. Qo'chqorov T. S., To'uchiyev A.A. O'zbekistonda korxonalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan qo'llash yo'nalishlari // Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot. – 2024. – T. 2, № 11. – S. 7–12. – <https://doi.org/10.5281/zenodo.14225451>

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq 1-sonli "KPI UP dasturiy vositasi" nomli loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tashkilot xodimlari ish faoliyati samaradorligini sun'iy intellekt asosida ma'lumotlar aniqligi va to'g'riligini tekshirish, hisoblash, dinamik ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish va ma'lumotlarni transformatsiyalash mexanizmlarini qamrab olgan raqamlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

xodimlar ish faoliyati samaradorligini hisoblashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, dasturiy vositalarini, zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish;

ish faoliyati samaradorligini hisoblashda ma'lumotlarning aniqligi va to'g'riligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, ushbu jarayonda sun'iy intellekt modellaridan foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

xodimlar ish faoliyati "KPI" ko'rsatkichlarini hisoblashning mavjud usullari va statistik yondashuvlarini tahlil qilish, ularning afzallik va cheklovlarini aniqlab, takomillashtirilgan yondashuvni taklif etish;

xodimlar ish faoliyatini hisoblashga mo'ljallangan dasturiy vositaning umumiy tuzilmasi va funksional modullarini loyihalash, tizimning mantiqiy va texnik arxitekturasini ishlab chiqish;

dasturiy vositasi uchun hisoblash algoritmlari, axborot oqimlari va dasturiy arxitektura yechimlarini ishlab chiqish, ularning real vaqt rejimida ishlash imkoniyatlarini asoslash;

xodimlar faoliyat ko'rsatkichlarining o'zgaruvchanligini inobatga olgan holda dinamik ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish, hamda ER-modelini ishlab chiqish va turdosh axborot tizimlari bilan transformatsiya qilish mexanizmlarini taklif qilish;

takomillashtirilgan avtomatlashtirilgan tizimini amaliyotga joriy etish imkoniyatlari, natijalari va samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim muassalari va KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichi) bilan baholash.

Tadqiqotning predmetini raqamli texnologiyalar yordamida ma'lumotlarga ishlov berish, ma'lumotlar aniqligi va to'g'riligini tekshirish, ko'rsatkichlarni hisoblash yondashuvlari, algoritmlari hamda axborot tizimlarini ishlab chiqish texnologiyalari (MVC, CRUD).

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ko'p mezonli hisoblash hamda og'irlik koeffitsientlarini aniqlash algoritmlari, Random Forest, Gradient Boosting kabi sun'iy intellekt modellari, raqamli ma'lumotlarga ishlov berishda Python, SQL va real vaqt rejimida ishlov berish texnologiyalari, axborot texnologiyalari vositalari tajriba sinov, amaliy kuzatuv, ma'lumotlarni validatsiya qilish, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari xodimlari ish faoliyati samaradorligini baholashda ma'lumotlar ishonchliligi va aniqligini ta'minlash uchun sun'iy intellekt asosidagi matnlar o'xshashligini baholash, manbaning raqamli identifikatorini haqiqiylikni aniqlash, ma'lumotlarning to'g'riligi va belgilangan talablarga mosligini inson aralashuviziz amalga oshirish algoritmi ishlab chiqilgan;

ta'lim muassasalari xodimlarining shaxsiy samaradorlik muhim ko'rsatkichlarini baholash modeli ma'lumotlarning turli xil o'lchov birliklariga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni yagona qiymatga keltirish uchun normallashtirish hamda kelgusi davrlardagi potensial samaradorligini bashorat qilishda ansambl mashinali o'qitish modellarini qo'llash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalari xodimlari faoliyati samaradorligini baholash jarayonlarini formallashtirish maqsadida sun'iy intellektga asoslangan modulli arxitektura va ma'lumotlarga ishlov berish, dinamik ma'lumotlar bazasi modeli va ma'lumotlarni transformatsiyalashning algoritmlari asosida "KPIup" dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan;

ko'p omilli normallashtirish funksiyalari va ansambl mashinali o'qitish modellari asosida raqamlashtirish, dinamik ma'lumotlar bazasi modeli va transformatsiyalashning formal algoritmlari asosidagi dasturiy vosita oliy ta'lim muassasasida ish faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarining ma'lumotlar tahlilining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz dinamikasi ARIMA va ETS modellari asosida baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

samaradorlik ko'rsatkichini hisoblashda asosiy xususiyatlarni ajratish vositalari ishlab chiqildi va "KPI" tizimiga integratsiya qilindi. Xodimlarning mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillar ko'pligi sababli, suniy intellekt algoritmlari yordamida faqat ahamiyatli va ta'sirchan xususiyatlar saralab olish tavsiya qilindi. Buning natijasida "KPI" tizimidagi ahamiyatga ega bo'lmagan ma'lumotlar filtrlab tashlandi va baholashning aniqligi oshdi.

Random Forest va Gradient Boosting modellarining xususiyat ahamiyatini aniqlash metodlari qo'llanilib, oliy ta'lim muassasalarida sinovlar orqali amalda tasdiqlandi. Bu orqali universitet rahbariyati "KPI" ustuvorliklarini aniqlab, qaror qabul qilishda eng muhim ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadigan boshqaruv mexanizmiga ega bo'ldi

"KPIup" axborot tizimi va joriy algoritmlari bilan to'liq integratsiya qilindi. Platformaning dastlabki versiyasi tashkilot xodimlari "KPI" ko'rsatkichlarini ma'lumotlarini avtomatik yig'ish, ishlov berish va hisoblashni ta'minlaydi. Axborot tizimi front-end va back-end qismlardan iborat bo'lib, foydalanuvchiga qulay interfeys, vizual tahlil modullari, real vaqt monitoring modullari bilan ta'minlangan.

tizimda xodimning rolga qarab ko'rsatkichlarni ko'rish, yangilash va taqqoslash imkoniyatlari yaratildi. "KPI" ko'rsatkichi bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida avtomatik hisobotlar shakllantiriladi, xatoliklar aniqlanadi

va baholash bo'yicha tahliliy takliflar beriladi. Shuningdek, universitetlar miqyosida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan va keyinchalik boshqa tashkilotlarda ham tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalari ishonchliligi bir necha muhim ilmiy-amaliy asoslar bilan tasdiqlanadi. Ishlab chiqilgan "KPIup" axborot tizimi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida sinovdan o'tkazilib, uning real faoliyatga mosligi tekshirildi. Baholash algoritmlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, tahlil qilish va xulosalashga xizmat qilib, turli foydalanuvchi darajalarida testdan o'tkazildi. Tizim xodimlarning asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni hisoblash va qaror qabul qilishda samarali tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatlar yaratib beradi. Tadqiqot davomida SI modellarining prognozlash aniqligi MAE, RMSE kabi metrikalar bilan tekshirildi. "KPI" ko'rsatkichlarining tasnifi, ularning vazn koeffitsientlari, dinamik o'zgarishlari, ekspert baholari bilan taqqoslanib, modelning aniqligi mustahkamlandi. Tizimda aniqlangan natijalar boshqa hisoblash usullari bilan solishtirilib, yuqori moslik va funksional barqarorlik qayd etildi. Shuningdek, "KPIup" axborot tizimi asosida qaror qabul qilish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar universitet boshqaruv tizimida amaliy qo'llanib, ijobiy natijalar bergani bilan ilmiy va amaliy natijalarning ishonchliligi ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot xodimlar ish faoliyatini samardorligini hisoblash va boshqarish bo'yicha ilmiy hamda amaliy yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy jihatdan, "KPIup" tizimini sun'iy intellekt modellariga integratsiya qilish orqali faoliyat samaradorligini hisoblashda yangi modeli ishlab chiqilgan. Model asosida xodimlarning asosiy ko'rsatkichlarini tanlash, ularni og'irlik koeffitsientlari bilan baholash, natijalarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beruvchi algoritmlar yaratilgan. Bu yondashuvlar raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimlari va raqamli texnologiyalar sohalarini birlashtirib, zamonaviy "KPI" platformalarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Amaliy tomondan esa, "KPIup" platformasi orqali universitetlarda xodimlarni baholash, monitoring qilish va tahlil qilish tizimi yaratilgan bo'lib, u real sharoitda sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Platforma rahbariyat uchun tezkor va asosli qaror qabul qilishda, xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tizimdan boshqa tashkilotlarda ham foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, bu uni keng amaliyotga joriy qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tashkilot xodimlarining ish faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblashni raqamlashtirish asosida ilmiy va amaliy natijalari:

oliy ta'lim muassasalari xodimlari ish faoliyati samaradorligini baholashda ma'lumotlar ishonchliligi va aniqligini ta'minlash uchun sun'iy intellekt asosidagi matnlar o'xshashligini baholash, manbaning raqamli identifikatorini haqiqiylikni aniqlash, ma'lumotlarning to'g'riligi va belgilangan talablarga

mosligini inson aralashuvisiz amalga oshirish algoritmi va “KPIup” dasturiy majmuasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 25-dekabrda 01/01-01-626-son ma’lumotnomasi). Joriy etilishi natijasida ma’lumotlarni tekshirish jarayoni avtomatlashtirilib, ma’lumotlar aniqligi va ishonchliligi sezilarli darajada oshgan hamda inson omili ta’siri kamaytirilgan hamda texnik samaradorlik ko‘rsatkichlari ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi, API stabiligi, dashboard javob vaqti o‘rtacha 67 - 76 % ga yaxshilangan;

ta’lim muassasalari xodimlarining shaxsiy samaradorlik muhim ko‘rsatkichlarini baholash modeli ma’lumotlarning turli xil o‘lchov birliklariga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarni yagona qiymatga keltirish uchun normallashtirish hamda kelgusi davrlardagi potensial samaradorligini bashorat qilishda ansambl mashinali o‘qitish modellarini qo‘llash asosida takomillashtirilgan va Toshkent davlat agrar universitetida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 25-dekabrda 01/01-01-626-son ma’lumotnomasi). Joriy etish natijasida ko‘rsatkichlarni baholashda barqarorlik va aniqlikni oshirish, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonlarini matematik jihatdan asoslash, inson kapitali boshqaruvidagi byurokratik to‘siqlar kamaytirish va boshqaruv xarajatlari iqtisod qilish imkoniyatini yaratgan, shuningdek baholash hisobotlarini shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlar yiliga 55–100 mln so‘mgacha kamaygan;

oliy ta’lim muassasalari xodimlari faoliyati samaradorligini baholash jarayonlarini formallashtirish maqsadida sun‘iy intellektga asoslangan modulli arxitektura va ma’lumotlarga ishlov berish, dinamik ma’lumotlar bazasi modeli va ma’lumotlarni transformatsiyalashning algoritmlari asosida “KPIup” dasturiy majmuasi Turon universiteti Andijon filialida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 25-dekabrda 01/01-01-626-son ma’lumotnomasi). Natijada ma’lumotlarni qayta ishlash ko‘rsatkichlarni oldindan baholash, ularning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlarini shakllantirish imkonini bergan va faol foydalanuvchilar ulushi 35–40 % ga oshgan, qaror qabul qilish tezligi 4–6 kundan 1 kungacha qisqargan hamda ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligi sezilarli darajada oshgan;

ko‘p omilli normallashtirish funksiyalari va ansambl mashinali o‘qitish modellari asosida raqamlashtirish, dinamik ma’lumotlar bazasi modeli va transformatsiyalashning formal algoritmlari asosidagi dasturiy vosita oliy ta’lim muassasasida ish faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarining ma’lumotlar tahlilining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz dinamikasi ARIMA va ETS modellari asosida baholash uslubiyat Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent davlat agrar universitetlarida amaliyotga joriy etilgan (O

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 25-dekabrda (01/01-01-626-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida samaradorlik ko‘rsatkichlarining 2030-yilgacha bo‘lgan prognozini o‘shirish tendensiyasiga ega ekanligini aniqlandi, bu esa moliyaviy rejalashtirish va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 7 tasi mahalliy va 4 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek, xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan. EHM uchun dasturiy ta’minotlarga O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zarurligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijadorligi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Raqamli iqtisodiyot sharoitida xodimlar ish faoliyati samaradorligini hisoblashni raqamlashtirishning nazariy asoslari**” deb nomlanib, xodimlar samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari, KPI tizimining shakllanish jarayoni hamda zamonaviy boshqaruvdagi o‘rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. KPI konsepsiyasining rivojlanishi P. Drukerning “maqsadlar bo‘yicha boshqaruv” tamoyillari, Teylorning mehnat unumdorligini o‘lchashga doir ilmiy yondashuvlari, Demingning sifat nazorati bo‘yicha qarashlari hamda Kaplan va Nortonning Balanced Scorecard modeli asosida tahlil qilingan.

Tahlilat asosida xodimlar faoliyati ko‘rsatkichlariga ishlov berishda qo‘llaniladigan dasturiy vositalarni bir nechta asosiy toifalarga bo‘lish mumkin:

1. Kadrlar boshqaruvi tizimlari HRM - Ushbu tizimlar xodimlarning umumiy ma'lumotlarini saqlash, ish grafigini boshqarish va faoliyat ko'rsatkichlarini qayd etish uchun ishlatiladi. Masalan, SAP successFactors, Oracle HCM Cloud va BambooHR kabi platformalar ushbu toifaga kiradi.

2. Ish samaradorligini baholash vositalari PMS - Bu dasturlar xodimlarning ish natijalarini o'lchash, maqsadlarni belgilash va KPI asosida tahlil qilishga mo'ljallangan. Masalan, Workday, 15Five va Lattice kabi vositalar.

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya vositalari: Power BI, Tableau va Google data Studio kabi platformalar xodimlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni vizual shaklda taqdim etish va chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

4. Sun'iy intellektga asoslangan vositalar - ushbu yangi avlod dasturlari xodimlar faoliyatini bashorat qilish, avtomatlashtirilgan tavsiyalar berish va katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor ishlov berishda qo'llaniladi. Masalan, IBM Watson va People Analytics kabi tizimlar.

Aniqlangan asosiy elementlar asosida asosiy ko'rsatkichni hisoblashga xodim faoliyatiga oid tizimlar tanqidiy o'rganildi hamda quyidagi jadvalda oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan keng tarqalgan KPI/HR/LMS tizimlari bo'yicha umumiy taqqoslashni taklif qilindi. Bu tizimlar tanlangan xususiyatlar asosida joriy etish ssenariylari va narxlar konfiguratsiyaga qarab farq qiladi (1-jadval).

Xodim KPI ni xisoblashda o'ziga xos yondashuvlar va ularning afzalliklari mavjud. Tashkilotlar samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda quyidagi yondashuvlar keng qo'llaniladi.

An'anaviy yondashuv - bu yondashuvda tashkilotning moliyaviy ko'rsatkichlariga asoslangan holda xodimlar samaradorligi baholanadi. Oddiy va tezkor hisob-kitob imkoniyati, moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslanib, tashkilotning umumiy iqtisodiy natijalarini tezkor baholash imkonini beradi.

Innovation yondashuv - SI va avtomatlashtirilgan tizimlar xodimlarning samaradorligini aniq baholash va ish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Ushbu tizimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, xodimlarning ish faoliyatiga oid muhim indikatorlarni aniqlash va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini taqdim etadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv - kompetensiyaga asoslangan yondashuvda xodimlarning ish faoliyati faqatgina yakuniy natijalarga emas, balki bilim (knowledge), ko'nikma (skills), tajriba (experience) va munosabat (attitude) kabi tarkibiy qismlardan iborat Kompetensiyalar majmuasiga asoslangan holda baholanadi.

Shuningdek mazkur bobda respublikada KPI bo'yicha amalga oshirilayotgan yondashuvlar va amalga oshirilayotgan vazifalar va muammolar keltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash tizimlari qiyosiy tahlili¹

Tizim / Platforma	Turi	Asosiy yo'nalish	KPI kategoriyalari	Ball / Hisoblash	SI/Analitika	Integrasiya	Qo'llaniladigan davlatlar	Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
SAP SuccessFactors (Performance & Goals + Learning)	Kommersiya (SaaS)	HR Performance, Kompetensiya va maqsadlar, learning	Xodim KPI, rivojlanish, sertifikatlar, compliance	Maqsad/KPI og'irligi, rating shkalalari, 360° baho	ML asosida tavsiya va insightlar (People Analytics)	SAP/SCORM/LMS, HR va moliya tizimlari bilan keng API	AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya	Katta ekotizim, kuchli compliance va analytics	Narxi yuqori, sozlash murakkab
Oracle HCM Cloud (ePerformance) + Oracle Analytics	Kommersiya (Cloud)	HR appraisal, KPI/OKR, Kompetensiyalar	O'qituvchi KPI, ma'muriy KPI, maqsadlar	Og'irlikli ko'rsatkichlar, maqsad natijasi %	SI yordamida prognoz/atrisiya insightlari (variant)	PeopleSoft/Campus Solutions, LMS/SIS integratsiyasi	AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya	Kengayuvchan, universitet SIS bilan bog'lash osonroq	Joriy etish uzoq, adminlash resurs talab qiladi
Microsoft Stack (Power BI + Viva + Dynamics 365 HR)	Kommersiya (modulli)	KPI dashboardlari, ish unumdorligi, engagement	Ta'lim, ilmiy, xizmat; moslashtiriladi	Formularlar va hisob-kitoblari BI modelida	Power BI AI viz, Copilot yordamchi	O365, Teams, LMS/SIS API orqali	AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Skandinaviya	Moslashuvchan, tez prototiplash	To'liq KPI jarayonini boshqarish uchun qo'shimcha modullar kerak
Moodle (Competency & Learning Analytics)	Open-source (self-hosted/Cloud)	O'quv natijalari, Kompetensiya va kurs KPI'lari	Talaba faolligi, baholash, Kompetensiya qamrovi	Rubrikalar, Kompetensiya xaritasi, ball formulalari	Early-warning/engagement analitikasi (plaginlar)	SIS/HR bilan plugin/API, SCORM/LTI	Rossiya, Qozog'iston, Germaniya, Ispaniya	Moslashuvchan, katta jamiyat, arzon	Toliq HR/KPI jarayoni uchun qo'shimcha ish talab
Canvas LMS (Outcomes & Analytics)	Kommersiya (SaaS)	O'quv natijalari (outcome), analytics	Talaba natijasi, faoliyat metrikalari	Outcome mastery, rubrikalar	Analytics & Insights, LTI SI integratsiyalari	SIS, LTI, 3rd-party analytics	AQSh, Kanada, Avstraliya	Foydalanuvchi uchun engil UX, tezkor analitika	Xodim KPI'lari uchun cheklangan; HR bilan qo'shimcha bog'lash kerak
Blackboard Learn + Analytics	Kommersiya (SaaS)	Learning analytics, retention indikatorlari	Ishtirok, baholash, retention, kurs sifati	Indicator scoring, threshold alertlar	Risk scoring, early alers (modullar)	SIS/LMS ekotizimi, LTI/REST API	AQSh, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni	Keng analytics paketi, institusional ko'rinish	Kadrlar KPI'lari uchun cheklangan; narx yuqori bo'lishi mumkin
Odoo HR + Appraisal + eLearning	Open-source (Enterprise opsiyasi)	HR appraisal, kurslar va sertifikat KPI'lari	Xodim maqsadlari, kurslar, sertifikatlar	Maqsad/og'irlik/rejting, KPI widgetlari	Asosiy BI va plaginlar orqali kengayadi	REST API, 3rd-party BI (Metabase/Tableau)	Fransiya, Belgiya, Germaniya, Hindiston	Moslashuvchan va arzon stack, tez integratsiya	Sektor-spesifik KPI'larni o'zing sozlaysan
Kutilyotgan KPI tuzilmasi	Maxsus/korporativ (mahalliy)	Xodimlar KPI (o'qituvchi/professor), hisobot va monitoring	Ta'lim (dars), Ilmiy tadqiqot, Xizmat/ijtimoiy ishlar, Ma'muriy	Band/mezonga ko'ra ball, maksimal limitlar, tasdiqlash jarayoni	Asosiy vizual analitika; SI jarayoni integratsiya uchun ochiq	Fayl yuklash, Excel eksport; LMS/SIS bilan qo'lda bog'lash	O'zbekiston	Universitet kontekstiga moslashgan, soddalashtirilgan jarayon	Standart API cheklangan; ko'p tizimli integratsiya qo'lda

¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

KPI hisoblash tizimlarining SI komponentlari va ularning turlari asosida funksional tavsifi¹

№	Bosqich	Qo'llanilgan SI texnologiyasi	Funksional tavsifi
1.	Ma'lumotlarni yig'ish	Data inGESTion va Smart indexing	CRM, LMS (Learning Management Systems), vaqt nazorati, baholash tizimlaridan axborotlar avtomatik to'planadi.
2.	Kompetensiya tahlili	Natural Learning Processing (NLP)	Xodim yozgan matnlardan professional ko'nikmalar va yumshoq kompetensiyalar ajratiladi.
3.	Samaradorlik baholash	Machine Learning (Classification va Regression)	Xodim faoliyatiga baho beriladi, natijalar "Performance rating" shaklida aks ettiriladi.
4.	Kareraviy bashorat	PrediSitive Analytics	Xodimning lavozim o'sishi ehtimoli, chiqib ketish xavfi, va ilg'or salohiyati aniqlanadi.
5.	Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar	Recommendation Systems	Har bir xodimga individual rivojlanish yo'nalishlari, treninglar va lavozimlar taklif etiladi.
6.	HR qarorlarni qo'llab-quvvatlash	AI-based DeSIion Support Systems	Menejerlarga xodimlar bo'yicha qarorlar chiqarishda yordam beruvchi analitik interfeys.

O'zbekistonda xodimlar mehnat samaradorligini hisoblash so'nggi 3 yilda davlat va xususiy sektorda eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Ushbu sohadagi huquqiy asoslar, amaliy choralar va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha bir qator qaror va farmonlar, chora tadbirlar belgilangan. O'zbekistonda mehnat samaradorligini baholash tizimi asosan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda:

- Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

- Mahalliy hokimlik xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimi aynan KPI ko'rsatkichlari bilan bog'landi.

- 93 ta davlat organi va xo'jalik birlashmalari rahbarlarining faoliyatini KPI asosida baholash tartibi tasdiqlandi.

- Xodimlar faoliyatini baholashning aniq mezonlari va "samaradorlik.uz" platformasi orqali ishlash tartibi belgilab berildi.

Shuningdek, KPI quyidagi 6 ta asosiy talabga javob berishi shart:

1. Aniqlik: Vazifa va kutilayotgan natija aniq ifodalangan bo'lishi.

2. Vaqt chegarasi: Natijaga erishish muddati belgilangan bo'lishi.

3. Kompetentlik: Xodimning lavozim yo'riqnomasiga mosligi.

4. Maqsadlilik: Tashkilotning strategik maqsadlariga xizmat qilishi.

¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

5. Erishish mumkinligi: Real sharoitda bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar.

6. O'lchanadigan bo'lishi: Natija raqamlarda yoki aniq indikatorlarda aks etishi.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta'lim muassasasi xodimlari ish faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashni raqamlashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida xodimlar samaradorligini baholash jarayonida kompleks yondashuvning shakllanishi, xususiyatlarni ajratib olishning ilmiy asoslari hamda sun'iy intellekt yordamida ko'rsatkichlar tizimini optimallashtirish masalalari yoritilgan.

Xususiyatlarni ajratib olish - bu ma'lumotlar to'plamidan model yoki tizim uchun eng muhim, informativ va aniq atributlarni jarayonidir. Bu jarayon quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi.

3-jadval

KPI platformasida xodim faoliyatiga oid xususiyatlar²

№	Xususiyat nomi	Izoh (mazmuni)	Ma'lumot manbai	KPI ga ta'siri
1	Maqolalar soni	Ilmiy jurnallardagi maqolalar (Scopus, WoS, OAK)	Google Scholar, OAK, Repozitoriy	Juda yuqori
2	Dars soati	Yillik o'qitilgan darslar (soatlar hisobida)	Dekanat, O'M	Yuqori
3	Sertifikatlar	Malaka oshirish, qayta tayyorlash bo'yicha hujjatlar	Sertifikatlar bazasi	O'rta
4	Treninglar	Ichki va tashqi treninglarda ishtirok	HR bo'limi, ishtirok jurnali	O'rta
5	Grantlar	Mahalliy yoki xalqaro loyihalarda ishtirok	Grantlar reestri, loyiha hujjatlari	Yuqori
6	Ijtimoiy faollik	Universitet/fakultet jamoaviy tadbirlarida ishtirok	HR, fakultet hisobotlari	O'rta
7	Rahbarlik	Ilmiy rahbarlik (Phd, magistr, stajyor-tadqiqotchi)	Aspirantura bo'limi	Yuqori
8	Davomat	Darslarga, majlislarga qatnashuv	Elektron davomat tizimi	O'rta
9	Tashabbuslar	Yangi kurs, modul, tashabbus, loyiha boshlashi	Ilmiy kengash qarorlari	Past
10	Akademik unvon	Fan nomzodi, dosent, professor, PhD, DSc	Attestasiya guvohnomalari	Yuqori
11	Darsliklar	Nashr etilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar	Repozitoriy, nashriyot ma'lumotlari	Yuqori
12	O'quv-uslubiy ishlar	Ishchi dasturlar, metodik qo'llanmalar	Kafedra hisobotlari	O'rta
13	Ilmiy rahbarlik	Himoyaga chiqqan yoki himoyaga tayyorlangan dissertatsiyalar	Ilmiy kengash, DS akademiyasi	Yuqori
14	Xalqaro hamkorlik	Chet el universitetlari bilan qo'shma ishlar	Xalqaro aloqalar bo'limi	Yuqori
15	Metodik seminarlar	Kafedra, fakultet miqyosidagi o'qituvchilar uchun seminarlar	Hisobotlar, protokollar	Past

² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Samaradorlikni baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tarkibi faoliyatning turli yo'nalishlarini qamrab olgani sababli, ularning barchasi yakuniy KPI natijasiga teng darajada ta'sir ko'rsatmasligi ta'kidlanadi. Shu bois ma'lumotlar to'plamidan eng informativ xususiyatlarni aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Bu hisoblashni kamaytiradi, modelni optimallashtiradi va aniqlikni oshiradigan fikrdamiz. O'lchamlarni qisqartirish KPI tizimlarida samaradorlikni tahlil qilishda:

modelni soddalashtiradi;

analitikani tezlashtiradi;

resurslarni tejaydi;

faoliyatni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi;

KPI tizimining ob'ektivligini oshiradi;

Tizim foydalanuvchilari (xodimlar, rahbariyat) KPI baholash shaffof, asosli, izohlanadigan bo'lishi tufayli:

KPI tizimining qabul qilinishi va ishlatilish darajasi ortadi,

Norozilik kamayadi,

Qarorlar tezroq qabul qilinadi.

KPI tahlilida muhim xususiyatlar asosida xodimlarning KPI ko'rsatkichlarini shakllantirishda quyidagi asosiy xususiyatlar ajratib olinadi:

1. Ish hajmi va sifat ko'rsatkichlari (yillik natijalari, hisobotlar soni, baholash natijalari)

2. Ijro intizomi (vazifalarni muddatida bajarish, kechikishlar statistikasi)

3. Innovasion faoliyat (takliflar soni, amaliyotga joriy etilgan g'oyalar)

4. Jamoaviy ishda ishtirok darajasi (loyihalarda roli, rahbarlik funksiyalari)

5. Professional rivojlanish (o'quv/treninglarda ishtirok etish, sertifikatlar)

6. Axborot texnologiyalaridan foydalanish faolligi va boshqalar.

Bu xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar tashkilotning ichki axborot tizimlaridan, ish yuritish platformalaridan, elektron hisobot tizimlaridan yoki so'rovnomalar orqali olinishi mumkin. Xususiyatlarni ajratib olish usullari - Raqamli transformatsiya sharoitida xususiyatlarni ajratish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi.

Statistik tahlil - korrelyasiya, kovaryasiya, dispersiya tahlili yordamida ahamiyatli xususiyatlar aniqlanadi.

Mashinali o'qitish usullari - Feature selection (filtrlash, wrapper, embedded metodlar) PrinSIPal Component Analysis (PCA) asosiy komponentalarni aniqlash, Random Forest importance xususiyatlar ahamiyatini statistik aniqlash.

SI yondashuvlari - neyron tarmoqlar, regressiya modellarida *laer attention* orqali xususiyatlar muhimligi baholanadi.

Quyidagi jadvalda KPI tizimi asosida ajratiladigan asosiy xususiyatlar keltirilgan.(4-jadval)

Xususiyatlarni to'g'ri ajratish orqali - Baholash tizimining ob'ektivligini oshadiradi, KPI tahlili ko'proq aniqlik va shaffoflikka ega bo'ladi. Natijada SI asosidagi qarorlarni qabul qilish tizimlari yanada ishonchli ishlaydi.

KPI tizimi asosida ajratiladigan asosiy xususiyatlar³

№	Xususiyat	Izoh
1	Ilmiy maqolalar soni	Scopus, Web of Science, OAK keltirilgan maqolalar soni
2	O'quv yuklamasi (soatlarda)	Yillik dars soatlari
3	O'quv-uslubiy ishlar	Tayyorlangan darslik, o'quv qo'llanma, ishchi dasturlar soni
4	Ilmiy rahbarlik	Magistr, PhD, doktorantlarga rahbarlik holatlari
5	Ijtimoiy faollik	Fakultet va universitetdagi jamoaviy tadbirlarda ishtirok
6	Loyihalarda ishtirok	Grantlar, innovasion loyihalar ishtiroki
7	Sertifikatlar va o'quv kurslari	Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari
8	Akademik daraja	Fan nomzodi, fan doktori, PhD, DSc kabi darajalar

Shuningdek mazkur bobda ish faoliyati samaradorligini hisoblashda ma'lumotlar aniqligi va to'g'riligini tekshirishdagi yondashuvlar keltirilgan. Agar ma'lumotlar noaniq, to'liqmas, yolg'on yoki qaytarilgan bo'lsa natijada KPI ko'rsatkichlari ham noto'g'ri shakllanadi, bu esa baholashga nisbatan ishonchsizlik, noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi, adolatni ta'minlashining buzilishiga olib keladi. SI yordamida noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarni aniqlash. SI modellar o'z-o'zidan noto'g'ri kiritilgan, aynan bir faoliyatni ko'p marotaba ko'rsatish, xatolik bilan kiritilgan raqamlar, nomutanosib qiymatlarni aniqlay oladi (5-jadval).

SI yordamida noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarni aniqlash⁴

№	Holat	SI yordami bilan aniqlash usuli
1	Bir maqola ikki marta yuklangan	AI "title similarity" + DOI check bilan avtomatik aniqlaydi
2	Dars soati 1800 deb ko'rsatilgan	O'rtacha normativ 500-550, SI cheklov bilan filtrlab beradi
3	Sertifikat nomi noto'g'ri yozilgan	NLP orqali rasmiy nomlar bilan moslikni tekshiradi

SI yordamida noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarni aniqlashda SI asosida hujjat tahlili NLP orqali amalga oshiriladi. Xodim yuklagan hujjatlar matni SI model orqali tahlil qilinadi. Bunda nomuayyan, tushunarsiz fayl nomlari avtomatik rad etiladi. SI pdf fayldan maqola nomi, muallif, jurnal nomi, indeksatsiya tizimi (Scopus, Web of Science)ni ajratadi va plagiat, matn strukturasi va mazmuni bo'yicha baholanadi.

SI metodlari qo'llanilishi⁵


№	Yo'nalish	Texnologik yondashuv	Natija
1	Fayllarni avtomatik tahlil qilish	NLP (spaCy, BERT) + PDF parser	Keraksiz hujjatlar avtomatik rad etiladi
2	Takroriylikni aniqlash	Cosine similarity, duplicate detection algoritmlari	Bir faoliyat ikki marta kiritilmaydi
3	Grant, maqola, darsliklar verifikatsiyasi	API orqali Scopus, Elibrary, ORCID integratsiyasi	Faktga asoslangan baholash
4	Xatoliklarni avtomatik aniqlash	Outlier detection (Isolation Forest, Z-score)	G'ayritabiiy qiymatlar ogohlantiriladi

³ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

⁴ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.


⁵ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

SI yordamida noto‘g‘ri yoki manipulyativ ma’lumotlarni aniqlash. SI modellar o‘z-o‘zidan noto‘g‘ri kiritilgan, aynan bir faoliyatni ko‘p marotaba ko‘rsatish, xatolik bilan kiritilgan raqamlar, nomutanosib qiymatlarni aniqlay oladi.



1-rasm. KPI tizimni SI bilan integratsiyalash⁶

KPI tizimni SI bilan integratsiyalash - KPI tizimi ishonchligining asosidir. Ushbu yondashuv, nafaqat noto‘g‘ri KPI ni oldini oladi, balki foydalanuvchi ishonchini oshiradi, nizolarni kamaytiradi va tizimning foydali ishlashini ta’minlaydi.



2-rasm. Ma’lumotlarning haqiqiyligini tekshirish algoritmi⁷

⁶ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Foydalanuvchi ma'lumotlari rasm yoki fayl bo'lmasa qiymatlarning haqiqiylikini tekshirish uchun ushbu qiymatlar internetdan izlab ko'riladi. Olingan natijalar bilan qiymatlar solishtiriladi va natija ekranga chiqariladi. Masalan foydalanuvchi ilmiy maqolasini kiritganda mavzuning nomi va mualliflari internetdan izlab ko'riladi. Agar foydalanuvchi soxta ma'lumot kiritgan bo'lsa qiymatlar mos kelmaydi va natijani ekranga chiqaradi.

KPIup dasturiy vositasida foydalanuvchilar foliyatini tekshirish va baholash uchun KPIup dasturiy vositasida hujjatlarni haqiqiyliqi tekshirish algoritmi joriy qilindi. KPIup dasturiy vositasiga yuklagan hujjatlarni tizimga kiritgan ma'lumotlari bilan solishtirmoqda, agar yuklagan hujjatimiz bilan dasturga kiritgan ma'lumotimiz bir biriga mos kelmasa tizim avtomatik ma'lumotlarni SI modellari bilan tekshiradi xatolikni aniqlaydi.

Bobning "Universitet xodimlari ish faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichini hisoblashga sun'iy intellekt modellar va statistik algoritmlari" nomli uchinchi paragrafida xodim faoliyatini baholash uchun KPI tizimi uchta asosiy mezon, ma'lumotlarni normallashtirish, statistik tahlil qilish usullari, o'rtacha qiymat, dispersiya va standart og'ish, kvartillar, Z-skoring (standartlashtirish), xodimga ish faoliyati bo'yicha tavsiya berish orqali qaror qabul qilish uchun Random Forest, Gradient Boosting modellaridan foydalanish keltirilgan. Ilmiy tadqiqot ishida xodim faoliyatini baholash uchun KPI tizimi uchta asosiy mezonga bo'lingan:

- 1.O'quv va o'quv-uslubiy ishlar.
- 2.Ilmiy va innovasiyalarga oid ishlar.
- 3.Ma'naviy va ma'rifiy ishlar.

Yuqoridagi statistik tahlil asoslari KPI mezonlari bo'yicha ma'lumotlar to'plamining xususiyatlarini yaxlit tasavvur qilishga yordam beradi. Bu statistik ko'rsatkichlar yordamida tashkilot o'rtacha natijadorlik darajasini, natijalarning o'zgaruvchanligini va g'ayrioddiy holatlarni (masalan, juda past ishlash yoki alohida yuqori natijalar) aniqlashi mumkin. Statistik tahlil natijalari keyingi bosqichda SI modellarini to'g'ri tanlash va ularga ma'lumotlarni to'g'ri tayyorlash (masalan, normallashtirish orqali) uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

KPI tizimida xodimga ish faoliyati bo'yicha tavsiya berish orqali qaror qabul qilish ham mavjud. Buning uchun tizimda 2 ta SI modellari foydalanilgan.

Random Forest modeli barqaror natija berishi, murakkab bog'liqliklarni aniqlay olishi va overfitting xavfini kamaytirishi bilan ajralib turadi. Bu ansambllashgan qaror daraxtlariga asoslangan mashinali o'rgatish modeli bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$\hat{y} = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^T f_t(x) \quad (1)$$

